

XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH: MAZMUN-MOHİYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Gulyamov Kaxramon Davronovich

O'zbekiston Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19053222>

Annotatsiya. Mazkur mavzu xavfsiz turizmni ta'minlash hamda uning turizm tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan asoslashga qaratilgan. Xavfsiz turizm turistik faoliyatning barqarorligi va ishonchliligini belgilovchi muhim omil bo'lib, u turistning hayoti va sog'lig'i, mulkiy manfaatlari, huquq va erkinliklari, shuningdek turizm infratuzilmasi va qabul qiluvchi hududning jamoat tartibi, sanitariya-epidemiologik hamda ekologik barqarorligini himoya qilishni nazarda tutadi. Ushbu tushuncha faqat jismoniy xavfsizlik bilan cheklanmay, transport va yo'l harakati xavfsizligi, axborot-kiber xavfsizlik, moliyaviy-huquqiy kafolatlar, xizmatlar sifati va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik kabi komponentlarni ham qamrab oluvchi kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etiladi. Mavzu doirasida xavflarni aniqlash, baholash, oldini olish, tezkor javob qaytarish, tiklash hamda monitoring kabi bosqichlarni o'z ichiga olgan risk-menejment yondashuvi xavfsiz turizmning amaliy poydevori sifatida ko'rsatiladi. Xulosa sifatida, xavfsiz turizmni ta'minlash davlat organlari, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligida standartlar, profilaktika va zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan integratsiyalashgan tizim ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: xavfsiz turizm, turistik xavfsizlik, risklarni boshqarish, jamoat xavfsizligi, turizm infratuzilmasi, sanitariya-epidemiologik xavfsizlik, transport xavfsizligi, axborot-kiber xavfsizlik, iste'molchi huquqlari, sug'urta, favqulodda vaziyatlar, krizis-menejment, profilaktika, turistik xizmatlar sifati.

Bugungi globallashuv va xizmatlar iqtisodiyotining jadallashuvi sharoitida turizm nafaqat daromad manbai, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, bandlik va xalqaro imijni mustahkamlovchi strategik soha sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, turistik oqimlarning ko'payishi, transport-logistika zanjirlarining murakkablashuvi, ommaviy tadbirlar sonining ortishi hamda raqamli xizmatlar (onlayn bron, elektron to'lovlar, mobil ilovalar) ulushining kengayishi turizmga xavf-xatarlar ko'lamini ham sezilarli darajada oshirmoqda.

Jinoyatchilik, firibgarlik, yo'l-transport hodisalari, sanitariya-epidemiologik tahdidlar, texnogen va tabiiy ofatlar, shuningdek axborot-kiber xurujlar turizm subyektlari va turistlar uchun real risk omillariga aylanmoqda. Xavfsizlikning yetishmasligi nafaqat sayyohlar uchun, balki turizm sohasi uchun ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik – sayohat qilish uchun yo'nalishni tanlashda sayyohning tanloviga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi bilan birga, turizmning jozibadorligini oshirishda va uning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

So'nggi paytlarda turizm xavfsizligini ta'minlash masalalari davlat hokimiyati organlari va ishbilarmon turistik hamjamiyatning diqqat markazida turibdi. Xavfsiz turizm bu - sayyohlar va mahalliy aholi uchun xavf-xatarsiz muhit yaratish va saqlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va siyosatlar majmuasi hisoblanadi.

Bunda sayyohlik yo'nalishlarda jinoyatchilik darajasi past, sanitar-gigienik normalarga rioya qilish, tibbiy yordamning tez va samarali ko'rsatilishi, tabiiy ofatlarga tayyorgarlik va ularga javob berish kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Misol uchun, Yevropa mamlakatlarida sayyohlar xavfsizligi davlat siyosati darajasida ta'minlanadi. Fransiya, Ispaniya, Italiya kabi mamlakatlar xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi infratuzilma va huquq-tartibot organlariga ega.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ham xavfsizlik turizm rivojlanishi uchun muhim omillardan biri sifatida tan olinib, bu borada turizm sohasini rivojlantirishda xavfsizlikni ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, O'zbekistonning sayyohlik potensialini oshirish maqsadida hukumat tomonidan qonunchilik bazasini mustahkamlash, xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish, mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasida xavfsizlik bo'yicha axborot targ'ibot ishlarini olib borish kabi ishlar shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiy forumi (JEF) hisobotida xabar berilishicha 2024 yilgi umumiy reytingda O'zbekiston 78-o'rinni egallagan. 2019 yildan buyon mamlakat 16 pog'onaga ko'tarilgan. Reytingga jami 119 mamlakat kiritilgan. JEF mutaxassislari 2019-2024 yillar uchun atrof-muhit, siyosat, infratuzilma va xizmatlar, resurslar va barqaror rivojlanish bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishgan¹.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi Qonunining asosiy prinsiplaridan biri ham "turistlarning, ekskursantlarning va turizm sohasi sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi"² sifatida mustahkamlanganligining o'zi ham tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Safety Perception Indexning 2023 yildagi hisobotida O'zbekiston xalqaro sayyohlar uchun eng xavfsiz davlat sifatida qayd etilgan. Ushbu reytingda eng xavfsiz mamlakatlar sifatida mos tartibda O'zbekiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va Norvegiya tan olingan. Bu to'rt davlat "yashil" darajaga ega bo'lib, fuqarolar hayoti va sayohatlari uchun xavf darajasi minimal ekani ko'rsatilgan. Safety Perception Index xavfsizlikni baholashda asosan beshta omilga e'tibor qaratadi: oziq-ovqat va suv ta'minoti, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar, noqulay ob-havo sharoiti, aqliy sog'liq va ish joylaridagi xavfsizlik. Bu omillar mamlakatlarning xavfsizlik reytingidagi o'rini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Manbada ta'kidlanishicha, so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda qonun va politsiya nazorati kuchaytirilgan, iqtisodiy o'sish va hukumat choralari tufayli jinoyatchilik va ijtimoiy xavflar kamaygan³.

Ammo, bu ishlar qanchalik amalga oshirilayotganini baholash uchun bir nechta muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

¹ [Ўзбекистон туризмни фаол ривожлантираётган мамлакатлар рейтингда биринчи ўринни эгаллади \(batafsil.uz\)](https://batafsil.uz)

² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.07.2019 й., 03/19/549/3446-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон; 07.06.2022 й., 03/22/775/0477-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 14.05.2024 й., 03/24/926/0344-сон

³ [Safety Perception Index Ўзбекистонни хорижий сайёҳлар учун энг хавфсиз мамлакат деб эълон қилди — Дарё Янгиликлари \(daryo.uz\)](https://daryo.uz)

Avvalo, qonunchilik bazasini mustahkamlash qay darajada va qanday tartibda amalga oshirilayotganini aniqlash hamda qonunlar qabul qilingan bo'lsa, ularning ijrosi va amalga oshirish mexanizmlari qanday yo'lga qo'yilgani to'g'risida axborot zarur.

Huquqiy chora-tadbirlar amalda samarali bo'lishi uchun ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilishi va lozim topilgan hollarda tuzatishlar kiritilishi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, xavfsizlik infratuzilmasi rivojlanishi to'g'risidagi tadbirlar, masalan, turistik zonalaridagi qo'riqlash xizmatlari, videokuzatuv tizimlari, favqulodda vaziyatlarda ko'maklashish xizmatlari qay tartibda yo'lga qo'yilgani va ularning amaliy foydalanilishi qandayligini aniqlash zarur. Har qanday infratuzilma elementlari faqat qog'ozda emas, balki amalda ham samarali faoliyat ko'rsatishi muhim.

Uchinchidan, mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasida xavfsizlik bo'yicha axborot targ'ibot ishlarining samaradorligi tahlil qilinishi kerak. Bu ishlarining amaliy natijalari, targ'ibot ishlari qanchalik samarali olib borilayotgani va buning natijasida sayyohlar xavfsizligi qay darajada ta'minlanayotgani haqidagi ma'lumotlar juda muhim.

Umuman olganda, tadqiqot mavzuining dolzarbligi sayyohlar xavfsizligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lib, bu har qanday mamlakat, shu jumladan O'zbekiston uchun ham turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Turizm sanoati jahon xo'jaligida eng dinamik tarmoqlardan biri bo'lib, tez rivojlanmoqda.

Turizm neft qazib olish va avtomobilsozlik sanoatidan keyingi uchta eng yirik eksport tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda turizm jahon xo'jaligidagi eng daromadli soha hisoblanadi⁴.

Turizm va xavfsizlik o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi hodisalar sifatida qayd etish lozim. Jahon turizm tashkiloti tomonidan 2001 yil 27 sentabrda qabul qilingan "Tinchlik va turizm" Seul deklaratsiyasida turistlarning xavfsizligi va himoyasi har bir Jahon turizm tashkiloti a'zosi bo'lgan mamlakatda ustuvor vazifa bo'lishi kerakligi qayd etilgan⁵.

O'zbek tilining izohli lug'atida "xavfsizlik – xavf-xatarning yo'qligi; xavf bo'lmagan holat"⁶ sifatida ta'riflangan bo'lsa, katta rus tili izohli lug'atida "xavfsiz" atamasi "xavf tug'dirmaydigan, tahdiddan xoli" degan ma'noni bildiradi⁷.

Rossiya Federatsiyasining "Turistik faoliyatning asoslari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, turizm xavfsizligi, bu turistlar va ularning mol-mulkining xavfsizligini ta'minlash, sayohatlar vaqtida atrof-muhitga, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklariga, hamda davlat xavfsizligiga zarar yetkazmaslikni o'z ichiga oladi⁸. Bu norma, nafaqat turistlarning shaxsiy xavfsizligini, balki ularning atrofidagi muhitni va jamiyatning umumiy manfaatlarini ham himoya qilishni maqsad qiladi.

⁴ Главные факторы влияющие на развития туризма — Туристический бизнес (tourfaq.net)

⁵ См.: Сеульская декларация «Мир и туризм». Официальный сайт Всемирной туристской организации ООН. URL: <http://www.unwto.or>

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati - X.pdf (ziyouz.com)

⁷ См: Большой толковый словарь русского языка. - СПб., 1998. С. 67.

⁸ Статья 14. Обеспечение безопасности туризма \ КонсультантПлюс (consultant.ru)

Qirg'iziston Respublikasi qonunida "Xavfsiz turizm deganda, sayohat vaqtida turistlarning shaxsiy xavfsizligi va ularning mol-mulki xavfsizligi tushuniladi"⁹. Bu yerda turistlarning shaxsiy xavfsizligi va mol-mulkining himoyasiga urg'u berilgan bo'lib, atrof-muhit va davlat xavfsizligiga uncha e'tibor qaratilmagan. Belarus Respublikasining qonunida ham "Turizm sohasida xavfsizlik tushunchasi turistlar va ekskursiyachilarning hayoti, sog'lig'i va mulkining saqlanishini, turistik sayohatlar davomida atrof-muhitga ziyon yetkazmaslikni, ishtirokchilar va turizm faoliyati sub'ektlarini axborot bilan ta'minlashni, hamda ishtirokchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni anglatadi"¹⁰. Bu qonun Belarusda xavfsiz turizmni ta'minlash uchun ko'p qirrali yondashuvni ko'zda tutgan.

Shuni inobatga olgan holda, turizm xavfsizligi tushunchasi turli davlatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Rossiya va Belarus qonunlarida xavfsizlik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, turistlarning shaxsiy xavfsizligidan tashqari, atrof-muhit va davlat xavfsizligiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Qirg'iziston qonunida esa asosiy urg'u turistlarning shaxsiy xavfsizligi va ularning mol-mulkining himoyasiga berilgan.

M.B.Sharueva ta'kidlaganidek, turizm xavfsizligi turizm sohasidagi huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotganlar, ya'ni turoperatorlar (turagentlar), Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning dam olish huquqini amalga oshirishda xavfsizligini ta'minlashni anglatadi"¹¹. Bu yondashuv turizm jarayonining turli ishtirokchilari huquq va manfaatlarini himoya qilish, huquqiy tartibga solish va turistlar huquqlarini himoya qilishning ahamiyatiga urg'u beradi.

Ye.L.Pisarevskiyning fikricha, turizm xavfsizligi turizm sohasini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bo'yicha dinamik holat bo'lib, uning ishonchli mavjudligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi"¹². Bu ta'rif xavfsizlikning kengroq kontekstiga, jumladan, turizm sohasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlariga urg'u beradi.

S.R.Tursunova o'z tadqiqotida xavfsiz turizmni turistlarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki xavfsizligi, shuningdek, sayohat paytida jamiyatning ma'naviy, moddiy va milliy qadriyatlariga, atrof-muhitga, jamiyat va davlat xavfsizligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish va bartaraf etish holati sifatida tushunadi"¹³. Bu yondashuv xavfsizlikka turizm faoliyatining turli jihatlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvning zaruriyatini ta'kidlaydi.

Bu uchta ta'rif turizm xavfsizligining turli jihatlarini ta'kidlaydi va ular bir-birini to'ldiradi. M.B.Sharueva huquqiy jihatlariga urg'u beradi, Ye.L.Pisarevskiy tahdidlardan himoya va barqaror rivojlanishga urg'u beradi, S.R.Tursunova esa, turistlar va jamiyat xavfsizligini kompleks himoya qilishga urg'u beradi.

Birgalikda bu yondashuvlar turizm xavfsizligiga nisbatan to'liq tushuncha hosil qiladi, bu sohada strategiyalar va siyosatlar ishlab chiqishda e'tiborga olish mumkin.

⁹ Закон Кыргызской Республики от 25 марта 1999 года № 34 О туризме (В редакции Законов КР от 21 октября 2003 года № 218, 5 декабря 2013 года № 211, 10 мая 2017 года № 79) <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/tu-tu/201>

¹⁰ Закон Республики Беларусь от 11.11.2021 г. № 129-З «О туризме» – Pravo.by

¹¹ См.: Шаруева М.В. Правовое обеспечение безопасности туризма по российскому законодательству: автореф.... канд. юрид. наук. М., 2010. С. 17-18

¹² Писаревский Е.Л. Административно-правовое обеспечение безопасности туризма в Российской Федерации // Дисс.док.юрид.наук. – 2011, 496.

¹³ Турсунова С.Р. Хавфсиз туризмни таъминлашнинг маъмурий-хукукий чораларини такомиллаштириш // Юрид.фан.фал.док (PhD) дисс.- Тошкент, 2023. – 165 бет

Sayyohlarning xavfsizlik masalasiga bo'lgan e'tiborning tarixiy jihatlarini huquqshunos S.R.Tursunova "Xavfsiz turizmni ta'minlashning ma'muriy-huquqiy choralarini takomillashtirish" nomli dissertatsiyasida batafsil tadqiq etgan bo'lib, unga ko'ra qadimgi Rimda sayyohlarga ko'p sonli qo'riqchilar, gidlar va ekskursiya tushuntiruvchilari tomonidan turli xil pullik xizmatlar taklif qilingan. Ular, avvalo, alohida shaxslarning hamda sayyohlar guruhlarining xavfsizligini ta'minlashgan¹⁴ ekan, qolaversa, sayyohlarga yordam berish, ularning hayoti va sog'lig'ini noqonuniy hujumlardan himoya qilish, shuningdek, ularning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash, vaqtinchalik uy-joy va tungi turar joy bilan ta'minlash turli xalqlarning urf-odatlarida keng tarqalgan. Shu tariqa, turistlarning xavfsizligini ta'minlashga oid birinchi tartibotlar Rim huquqi tarixiga borib taqaladi¹⁵.

Sayohatning boshlang'ich davrlarida turistlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash ahamiyatlidir. Chunki, bu davrda turistlar yangi ijtimoiy-psixologik muhit, geografik sharoit va vaqtinchalik bo'lib turgan mamlakatning (joyning) gidrometeorologik xususiyatlariga moslashish davrini boshdan kechirishadi¹⁶.

Turizm xavfsizligi turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim omildir va bu orqali quyidagilarga erishish imkonini berishi mumkin:

- ❖ *turistlarni jalb qilish*: turistlar o'zlarini xavfsiz his qiladigan yo'nalishlarni tanlaydilar;
- ❖ *turistlarning qoniqishini oshirish*: xavfsizlik sayohatdagi qullaylik va quvonchni oshiradi, bu esa ijobiy fikrlar va tavsiyalarni rag'batlantiradi;
- ❖ *mamlakat imijini mustahkamlash*: xavfsizlik mamlakatning turistik yo'nalish sifatida ijobiy imijini shakllantirishda muhim omildir;
- ❖ *investitsiyalarni rag'batlantirish*: xavfsizlik investorlarni jalb qiladi, ular turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun mablag' sarflashga tayyor;
- ❖ *turistik resurslarni saqlash*: xavfsizlik tabiiy va madaniy resurslarni saqlashga yordam beradi, bu esa turizmning barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir.

Turizmning rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan raqobat, axborot texnologiyalari, avia tashuvlar, turoperatorlik xizmatlari, mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy holat hamda umumiy xavfsizlik darajasining oshishi kabilar. Biroq, shuni alohida ta'kidlash joizki, turistik tashkilotlar o'z faoliyati bilan bog'liq xavfsizlik masalalarini davlatning yordamisiz mustaqil ravishda hal eta olmaydilar¹⁷.

Sayohatda turistlar xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turistlar bo'ladigan joyning geografik va tabiiy xususiyatlari (dengiz, tog', cho'l hududlari, iqlim, o'ziga xos hayvonlar va hasharotlar mavjudligi va h.k.);
- vaqtinchalik bo'lish joyining madaniy va ijtimoiy muhiti, mahalliy ovqatning o'ziga xosligi, til, madaniy, diniy va etnik an'analar va h.k.;

¹⁴ Дулов А.Н., Дюхова К.А., Юрчак Д.В.. История путешествий и туризма: монография /– Витебск: УО «ВГУ им. П.М. Машерова», 2011. С - 50.

¹⁵ Турсунова С.Р. Хавфсиз туризмни таъминлашнинг маъмурий-хукукий чораларини такомиллаштириш // Юрид.фан.фал.док (PhD) дисс.- Тошкент, 2023. – 165 бет

¹⁶

¹⁷ Писаревский Е.Л. Актуальные вопросы совершенствования законодательства в области обеспечения личной безопасности туристов // Вестник СПбГУ. Сер. 14. 2011. Вып. 1. С.31-42

— turizm turlarining oʻziga xosliklari (ekstremal turizm, sport-sogʻlomlashtirish turizmi va b.);

— koʻrsatilayotgan xizmatlarning sifat va xavfsizlik darajasi;

— turistlar (ekskursantlar) shaxsiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlari, jumladan vaqtinchalik boʻlish mamlakatining (joyining) qonunlari, qoidalar va anʼanalari (madaniy, diniy va b.), sanitariya-epidemiologiya normalari va maxsus koʻrsatmalar, davlat organlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus xizmatlari, gidlar va yoʻlboshchi-instruktorlar koʻrsatmalari hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari.

Turistlarning (ekskursantlarning) xavfsizligi tashkiliy-texnikaviy, diplomatik, moliyaviy, huquqni muhofaza qilish va boshqa choralar kompleksini amalga oshirish orqali taʼminlanadi, bu choralar xavflarni qabul qilingan darajagacha pasaytirishga qaratilgan boʻlib, turizm xizmatlarini koʻrsatish jarayonida barcha ishtirokchilarning vazifalarini aniq taqsimlash va bajarish hamda turistlar tomonidan shaxsiy xavfsizlik talablariga rioya qilish orqali amalga oshiriladi.

T.V.Uxin va A.G.Fedorovning fikricha, turizm xavfsizligini tashkiliy-huquqiy taʼminlash birinchi navbatda turistlarning shaxsiy xavfsizligini tashkil etishga, ularning mol-mulkining saqlanishini taʼminlashga, turistik xizmatlar koʻrsatishda ekologik tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ¹⁸. Bularga qoʻshimcha tarzda, jinoyatlardan himoya qilish turizm xavfsizligining muhim qismi ekanligini ham taʼkidlash joizdir. Birinchidan, jinoyatlardan himoya qilish uchun huquqiy bazani mustahkamlash zarur. Mamlakatlar oʻz qonunchiligini qayta koʻrib chiqib, turistlarga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar uchun jazolarni kuchaytirishlari kerak.

Turistlar koʻp yuradigan joylarda turizm politsiyasi nazoratini kuchaytirish va tezkor yordam xizmatlarini yaxshilash lozim.

Ikkinchidan, turistlarning xavfsizligi uchun profilaktika choralarini koʻrish kerak. Bu borada mahalliy aholini va turistik xizmat koʻrsatuvchi xodimlarni oʻqitish, ularni jinoyatlarga qarshi kurashish va xavfsizlik qoidalariga haqida xabardor qilish muhim.

Uchinchidan, jinoyatlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerak.

Mamlakatlar oʻrtasida axborot almashish va qoʻshma chora-tadbirlar oʻtkazish, jinoyatchilarni qidirib topish va javobgarlikka tortishda hamkorlik qilish lozim.

Shularni inobatga olgan holda, ***xavfsiz turizmni taʼminlash deganda, sayohat qilish jarayonida turistlar va mahalliy aholi uchun xavf-xatarsiz muhit yaratish va ushbu muhitni saqlash, jinoyatchilik darajasini pasaytirish, sanitar-gigienik normalarga rioya qilish, tibbiy yordamni tez va samarali koʻrsatish hamda tabiiy ofatlarga tayyorgarlik koʻrish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilishi kerak boʻlgan chora-tadbirlar majmuasini tushunish lozim.***

Yuqoridagi tahlillar asosida xavfsiz turizmni amalga oshirishda quyidagi tamoyillar asos sifatida xizmat qilishi lozim deb hisoblaymiz:

- xavflarni baholash va boshqarish: Turistlar uchun potensial tahdidlarni, masalan, jinoyatchilik, tabiiy ofatlar, sogʻliq uchun xavfli omillar va siyosiy noustuvorlikni aniqlash maqsadida diqqatli xavf bahosini oʻtkazish.

¹⁸ Ухина Т.В., Федоров А.Г. Безопасность в туризме: вопросы правового регулирования и перспективы развития в условиях возникновения системных рисков // SERVICE plus SCIENTIFIC JOURNAL 2021, 15(3), 20–28

Aniqlangan xavflarni minimallashtirish yoki bartaraf etish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish. Bu xavfsizlik choralari, favqulodda holatlardagi rejalarini va aholi orasida xabardorlikni oshirish kampaniyalarini o'z ichiga olishi mumkin.

- turistlarni axborot bilan ta'minlash va o'qitish: Turistlarga safardan oldin potensial xavflar va ehtiyot choralari haqida to'liq axborot berish. Axborotni muayyan yo'nalishlar uchun individuallashtirish, mahalliy urf-odatlar, qonunlar va xavfsizlik muammolariga urg'u berish.

Turistik ob'ektlarda, turar joylarda va transport vositalarida xavfsizlik qoidalarining aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash.

- xavfsizlik choralari va favqulodda holatlarga javob berish: Yetarli soatda xavfsizlik xodimlari va infratuzilmani, shu jumladan, videokuzatuv tizimlari va tezkor javob berish guruhlarini ta'minlash. Jinoyatchilikni samarali boshqarish va hodisalarga javob berish uchun mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari va favqulodda yordam xizmatlari bilan yaqin hamkorlik qilish.

- javobgar turistik amaliyotlar: Turistlarni mahalliy urf-odatlar, an'analar va atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lishga rag'batlantirish. Mustaxkam turistik amaliyotlarni targ'ib qilish, masalan, chiqindilarni mas'uliyatli boshqarish va tabiatni muhofaza qilish choralari.

Turistlarni etik sayohat qilish imkoniyatlari, masalan, mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlash va zararli faoliyat turlaridan qochishga o'rgatish.

Bizningcha, ushbu tamoyillarning samarali amalga oshirilishi nafaqat turistlarning xavfsizligini ta'minlaydi, balki ularning sayohat tajribasini yanada yoqimli va xavfsiz qiladi. Shu bilan birga, mahalliy jamoalar va atrof-muhitni himoya qilishga ko'maklashadi, bu esa barqaror va javobgar turizmning rivojlanishiga yordam beradi.

Bir qator adabiyotlarda olimlar turistlarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan yuqori xavf manbalarini quyidagi toifalarga ajratadilar: 1) mashinalar, mexanizmlar, asboblari, texnologik jarayonlar, energetik va boshqa qurilmalar, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratadigan boshqa texnik vositalar; 2) tabiatning tabiiy hodisalari - yong'inlar, zilzilalar, bo'ronlar va odamlarning irodasi va ongidan mustaqil ravishda paydo bo'ladigan boshqa hodisalar; 3) ruxsatnoma tizimiga tushadigan moddalar va predmetlar - qurol, o'q-dori, zaharli, portlovchi va radioaktiv moddalar; 4) jismoniy shaxslarning hayoti va sog'lig'iga, moddiy va ma'naviy boyliklarga real xavf tug'diradigan harakatlar va harakatsizlik, masalan, qurol qo'llash va nosoz transport vositalarini ekspluatatsiya qilish¹⁹.

I.A. Andreevskiy esa, mazkur xavf guruhlarini uch turini ajratib ko'rsatgan:

- a) fuqarolarga, jamiyatga va davlatga tahdid qiluvchi xavflar;
- b) hukumatga tahdid qiluvchi xavflar;
- v) alohida fuqaroga tahdid qiluvchi xavflar.

Fuqarolarga tahdid qiluvchi xavflar orasida, shaxsning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va mulkiga tahdid qiluvchi xavflar, shu jumladan baxtsiz hodisalar va kasalliklardan, uy hayvonlaridan, shaxsiy ehtiyotsizlikdan kelib chiqadigan xavflar, og'zaki so'z, yozuv, matbuot va boshqalardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni sanab o'tgan²⁰.

¹⁹ См: Кардашова И.Б. Об общественной безопасности // Административное право и процесс. 2008. № 2.

²⁰ См.: Андреевский И.А. Полицейское право. Том I. С.-Петербург: типография Эд. Праца, 1871// ИПС «Гарант».

Xavflarning turli toifalarga ajratilishi turli olimlar va mutaxassislar tomonidan har xil usullar va nazariyalarga asoslangan bo'lib, bu muammoning moxiyatini yaxlit va aniq tasvirlashga xizmat qiladi. Biroq, har bir tasnifning o'ziga xos kuchli va kuchsiz tomonlari mavjud. Masalan, dastlabki olimlar tomonidan keltirilgan tasnifda, ya'ni mashinalar, mexanizmlar va tabiiy hodisalar kabi ta'riflar aniq va ko'p qirralidir. Ushbu tasnif turistlar uchun havflarni tahlil qilishda foydali bo'lishi mumkin, chunki u texnik, tabiiy va ijtimoiy omillarni hisobga oladi.

I.A.Andreevskiyning tasnifi esa, xavflarni uch katta toifaga ajratib, ularni fuqarolar, jamiyat va davlat nuqtai nazaridan ko'radi. Bu yondashuv xavflarning ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini o'rganishda katta yordam beradi, ammo u texnik va tabiiy xavflarning ko'p qirraliligini kamroq e'tiborga oladi. Masalan, tabiat hodisalarini aniq kategoriyaga ajratish murakkabligi sababli, ularning insonlar hayotiga bo'lgan ta'sirini baholash murakkab bo'lishi mumkin.

Ikki tasnif ham muhim va ularni birgalikda qo'llash xavflarni to'liqroq anglash va oldini olish choralari yaxshilashga yordam beradi. Texnik va tabiiy xavflarni ijtimoiy va siyosiy tahdidlar bilan birga o'rganish xavfsizlikni ta'minlashda samarali yondashuv hisoblanadi.

Ye.L.Pisarevskiy turizm xavfsizligini quyidagicha tasnifini taklif etgan:

- turizm sohasiga kiruvchi elementlar bo'yicha: turizm sohasining sub'ektlari xavfsizligi (turistlar xavfsizligi, tadbirkorlar xavfsizligi, turizm industriyasi xodimlari xavfsizligi, turistik hududlar aholisi xavfsizligi); turizm ob'ektlari xavfsizligi (turistik resurslarning saqlanishi, turizm infratuzilmasi xavfsizligi, turizm industriyasi ob'ektlari xavfsizligi, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari xavfsizligi, turizm sohasining sub'ektlari shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi va h.k.);

- sayohatlarning turlari va turlariga ko'ra: xalqaro turizm xavfsizligi (keluvchi turizm xavfsizligi, chiquvchi turizm xavfsizligi); ichki turizm xavfsizligi, ijtimoiy turizm xavfsizligi, ekologik turizm xavfsizligi va h.k.;

- milliy xavfsizlik ob'ektlariga ko'ra: ular turizm sohasida paydo bo'ladigan salbiy omillar va sharoitlar ta'siriga uchrashi mumkin – jamoat xavfsizligi, davlat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik va mahalliy aholining sanitariya-epidemiologik holati, huquqiy xavfsizlik va turizm sohasida davlat boshqaruvining xavfsizligi;

- turizm sohasida qo'llaniladigan xavfsizlik choralarining xususiyatiga ko'ra: turizm xavfsizligi turli xil (mehmonxona, turistik xizmatlar xavfsizligi, umumiy ovqatlanish xizmatlari xavfsizligi, turistlar uchun ko'ngilochar vositalar xavfsizligi va h.k.) va funksional (texnik xavfsizlik, yong'in xavfsizligi, turizm sohasida axborot xavfsizligi va h.k.) bo'lishi mumkin;

- xavf manbalari joylashgan joy va turizm sohasida xavfsizlik choralarining yo'nalishi bo'yicha: turizm xavfsizligi ichki va tashqi bo'lishi mumkin;

- turizm tashkil qilish shakli (usuli) bo'yicha: tashkil etilgan turizm xavfsizligi va tashkil etilmagan (o'z faoliyatidagi) turizm xavfsizligi²¹.

Ye.L.Pisarevskiyning turizm xavfsizligini shunday keng qamrab oluvchi tasnifi aniq va mukammal bo'lsa-da, bu tasnifni amalga oshirishda ko'plab qiyinchiliklar mavjud. Turizm sohasidagi xavfsizlikni ta'minlashda qonunchilik va huquqiy asoslarning yetarli darajada emasligi ko'pincha amaliyotda muammolar keltirib chiqaradi.

²¹ Писаревский Е.Л. Административно-правовое обеспечение безопасности туризма в Российской Федерации // Дисс.док.юрид.наук. – 2011, 496.

Shuningdek, turizm xavfsizligini ta'minlashda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi zarur bo'lib, bu ham qiyinchilik tug'diradi. Turizm sub'ektlari va ob'ektlari xavfsizligini ta'minlashda texnik va axborot xavfsizligiga alohida e'tibor qaratish lozim, lekin buning uchun zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlarni himoya qilish vositalarining qo'llanilishi talab etiladi. Shu sababli, Pisarevskiyning tasnifi aniq va to'liq bo'lsa ham, uning amaliyotga tatbiq etilishi uchun kompleks va integratsiyalangan yondashuv talab etiladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida bizningcha, quyidagi maxsus tahdidlarni ham sanab o'tish mumkin:

— turistlarning shaxsiy xavfsizligiga tahdidlar – jinoyatchilik turlari, firibgarlik, zo'ravonlik va ularning sog'lig'iga xavf solishi mumkin bo'lgan holatlar kirishi mumkin.

Masalan, o'g'irlik, talonchilik, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi va tan jarohat olish holatlari;

— turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining xavfsizligiga tahdidlar –biznesga qarshilik ko'rsatish, raqobatchilik qoidalarining buzilishi, korrupsiya va litsenziyalash talablarining noto'g'ri qo'llanilishi kirishi mumkin. Bu tahdidlar tadbirkorlikni murakkablashtiradi va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin;

— turizm sohasida mehnat xavfsizligiga tahdidlar – mehnat sharoitlarining yomonlashishi, ishlab chiqarish jarohatlari, kasbiy kasalliklar va ish beruvchilarning mehnat qonunchiligini buzishi kirishi mumkin. Bu tahdidlar xodimlarning sog'lig'i va xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi;

— mahalliy aholi uchun, jumladan, uning sanitariya-epidemiologik holati uchun xavfsizlik tahdidlari – turizm mahalliy aholi uchun sanitariya-epidemiologik holatning yomonlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Turistlar olib kelgan kasalliklar, axlat va chiqindilarning ortishi, suv va oziq-ovqat manbalariga zarar yetkazishi ehtimoli bor. Bu tahdidlar mahalliy aholi sog'lig'iga jiddiy xavf solishi mumkin;

— turizm sohasida ekologik, jamoat va davlat xavfsizligiga tahdidlar – tabiiy resurslarning ortiqcha iste'mol qilinishi, atrof-muhitga zarar yetkazilishi va ekosistemalarning buzilishi mumkin. Jamoat xavfsizligiga tahdidlar orasida jamoat tartibining buzilishi, turistlar bilan mahalliy aholi o'rtasidagi nizolar va ifloslanishni ko'rsatish mumkin. Davlat xavfsizligiga tahdidlar esa mamlakatning tashqi va ichki xavfsizligiga, jumladan, terrorizm kabi xavflarni o'z ichiga olishi mumkin.

Umuman olganda, turizm xavfsizligi tushunchasi va mohiyatini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, xavfsiz turizm dunyo miqyosida turizmning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir hamda xavfsizlikning yetishmasligi turizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xavfsizlikning ta'minlanishi turistlar uchun faqat qulaylik emas, balki ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishdir. Bu turizmning barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biridir;

ikkinchidan, respublika qonunchiligida xavfsiz turizm tushunchasini qonun darajasida belgilash maqsadida mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, ya'ni *xavfsiz turizm deganda* – turistlar va ularning mol-mulkining shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, sayohatlar vaqtida atrof-muhitga, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklariga ziyon yetkazmaslik, jinoyatchilik darajasini

kamaytirish, shuningdek, turistlar va turizm sohasida faoliyat yurituvchi sub'ektlarni axborot bilan ta'minlash va ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi;

uchinchidan, xavfsiz turizmni ta'minlash deganda, sayohat qilish jarayonida turistlar va mahalliy aholi uchun xavf-xatarsiz muhit yaratish va ushbu muhitni saqlash, jinoyatchilik darajasini pasaytirish, sanitar-gigienik normalarga rioya qilish, tibbiy yordamni tez va samarali ko'rsatish hamda tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar majmuasini tushunish lozim.

to'rtinchidan, turizm xavfsizligi bir qator xususiyatlarga ko'ra tasniflanishi turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir tur himoya choralari ko'rishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu tasniflash turizm xavfsizligiga oid himoya choralari rejalashtirish va amalga oshirishda yordam beradi. Har bir tur bo'yicha xavflarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun mos yondashuvlar talab etiladi.

beshtinchidan, xavfsizlikning ijtimoiy mohiyatini kamida uch jihatda ifodalash mumkin: a) shaxs, jamiyat, davlat va atrof-muhitni (keyingi o'rinlarda xavfsizlik ob'ektlari deb ataladi) ichki va tashqi xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilishning dinamik holati, bu ularning ishonchli mavjudligini va barqaror rivojlanishini nazarda tutadi;

b) xavfsizlik ob'ektlarining o'z faoliyati va rivojlanish jarayonida boshqa atrof-muhit ob'ektlariga zarar yetkazmasligi va (yoki) zarar yetkazish tahdidini yaratmaslik xususiyati;

v) fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish, ularning namoyon bo'lish oqibatlarini bartaraf etish hamda xavfsizlik tahdidlaridan jabrlangan shaxslarga zararni qoplashga qaratilgan inson faoliyati (xavfsizlikni ta'minlash jarayoni).